

TILLARNI O'QITISH METODIKALARI TUSHUNCHASI  
(O'QUVCHILARDA SO'Z ESLAB QOLISHNING YANGICHA USULLARI)

Baratova Dilsora Dilshodovna

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

Ilmiy raxbar: N.N.Zubaydova,

Sh.O.Mamayoqubova

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili fanini o'qitishda yangi pedagogik metodlar va texnologiyalar turlari va ularni dars jarayonida qo'llash usullari shuningdek metodlardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bu metodlar xorijiy tilni o'quvchilarning puxta o'zlashtirishida, o'sha tilda bemalol so'zlay olishida samarali foyda berishi, qo'llanilayotgan tajribalar asosida o'zga tillardagi so'zlarni qiziqarli usulda o'quvchilarga o'rgatish kabilalar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maxsus usul, chet tili, metodika, mavzuni o'rganish, yangi usullar, o'quvchilarda so'zeslab qolish usullari: A louder shouting style, self-listening style, active style.

**Annotation.** This article provides information about new pedagogical methods and types of technologies in the teaching of English and their application in the course of the lesson, as well as the practical significance of effective use of the methods. Also, information is given about how these methods are effective in mastering a foreign language words to students in an interesting way based on the experiences used.

**Key words:** Special method, foreign language, methodology, theme learning, new methods, methods of words memorization in students: A louder shouting style, self-listening style, active style.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о новых педагогических и видах технологий в преподавании английского языка и их применении в ходе урока, а также о практической значимости эффективного использования методов. Также дается информация о том, насколько эти методы эффективны для овладения иностранным языком, позволяют им легко говорить на этом языке и в интересной форме преподают учащимся слова на иностранном языке на основе используемого опыта.

**Ключевые слова:** Специальный метод, иностранный язык, методология, тема обучения, новые методы, способы запоминания слов у учащихся.

Tillarni o'rganish kishilik jamiyatida nihoyatta muhim bo'lgan sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni turli muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki boshqa bir uyushgan holda (darslarda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid ilmiy ko'nikmalar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Ma'lumki, biror bir chet tilini o'rganish

va o'rgatish muayyan jihatlari bilan o'z ona tilidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet tilini o'qitish texnologiyasini taqozo etadi.

Chet tili – bu xorijiy mamlakat tili. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ular ta'lif muassasalarining o'quv rejalaridan o'rinn olgan.

Chet til mutaxassisligini kasb-u kor sifatida tanlagan kadrlar zimmasiga ushbu tilni o'qitish nazaryasidan mukammal xabardor bo'lishdek vazifa yuklanadi. O'qitish ilmini metodika fani yoritadi, “methodike” so'zi yunoncha so'z bo'lib, “biror bir ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi” ma'nosini bildiradi. Chet til o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'lifning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lif va tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Sobiq Ittifoq davrida chet tilini o'qitish metodikasi faniga atoqli tilshunos olim, akademik Lev Vladimirovich asos solgan. Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak pog'onalarga ko'tarishda Lev Vladimirovichning shogirtlari (V.Raximov, S.Setling, A.Mirolyubov, o'zbek olimlari va boshqalar)ning hissasi ulkandir. Chet tilini o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quidagilarni kiritish mumkin: ta'lif sistemasi, ta'lif metodi, ta'lif prinsipi, ta'lif vositasi, metodik usul. Xalqaro miqyosda yangicha talqiq etilmagan “Chet tilini o'qitishning qiyosiy metodikasi” o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqildi. Unda turli o'quv yurtlarida chet tilini o'qitish muammolari ko'tarilgan. Ilmiy tadqiqot metodlari ikkiga bo'linadi – nazariy metodlar va tajribaga asoslangan metodlar. Tadqiqotning nazariy metodlariga sintez, ilmiy farazlar qurish, modellashtirish kabilar kiradi. Amaliy ya'niy tajriba metodlarga esa eksperiment, maqsadli kuzatish kabilar tegishlidir. Bular umumiy yoki asosiy metodlardir. Ilmiy tekshirish metodlaridan xususiyлari quyidagilardir: so'rovlar o'tkazish, test bajarish, suhbat o'tkazish kabilar kiradi. Ushbu metodlarning alohida-alohida yoki umumiy birgalikda qo'llanilishi o'sha o'rganilayotgan tadqiqot turiga bog'liqidir. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot uvh turga bo'lingan: 1. Fundamental ilmiy tekshirishda fanning asil nazaryasi hal etiladi. 2. Amaliy tadqiqotda nazaryaning aniq bo'lgan elementlari ishlab chiqiladi. 3. Ishlab chiqarish uchun kerakli materiallar tuzish ga doir tadqiqotda darslik, qo'llanma, audiovisual vositalar yaratish bilan shug'ullaniladi.

A louder shouting style. Balandroq baqirish uslubida har bitta so'zni dona dona qilib talaffuz qilish kifoya shunda bu yaxshi samara beradi. Baland ovoz bilan aytilgan so'zlarda o'n foizga yaxshiroq eslab qoladi.

Self-listening style. Ma'lum bir axborotni o'rgangach, uni diktafonga yozib olinadi. Uxlash vaqtida uni sekingina eshitiladi – uning sadosi ostida aynan uxlash mumkin. Allaqachon tanish, ammo eslab qolish qiyin bo'lgan narsalarni mustahkamlash uchun ajoyib usul.

Active style. Bir joyda o'tirmasdan she'r, darslik va ma'ruzalarni yodlash chog'ida xona bo'ylab aylanib yuriladi. Gap shundaki, yurish miyya faoliyatini kuchaytiradi va sizning eslab qolish qobilyatingizni ancha oshiradi.

Manba: “Jv.ru”

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Chet tilini o'qitish metodikasi. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2012
- 2.Ingliz tili o'qitish qiyosiy metodikasi/Tuzuvchi J.Jalolov. – Toshkent: O'R OO'MTV,2008.
- 3.Academic Research, Uzbekistan. Volume2, 2021-yil, 1020-bet. [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
- 4.Jalolov J. “Methods of teaching foreign languages”, Tashkent “Teacher's Publishing House” 1996-yil.